

Ilg'or xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga Rossiya Federatsiyasining "Rostselmash" kompaniyalar guruhining "Rostselmash" zavodi Bosh direktori Malsev Valeriy Viktorovich va Osiyo bo'yicha mahsulotlar realizatsiyasi departamenti direktori Kolesnikov Andrey Borisovich hamda "Uzagrotexsanoatxolding" AJ boshqaruv raisining ishlab chiqarish bo'yicha o'rinbosari Xayrullayev Tulqun Asatovichlar tashrif buyurishdi. Tashrif doirasida V.V.Malsev va A.B.Kolesnikovlar institut hamda uning Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti o'quv jarayoni, fakultetdagi kafedralar faoliyati va ularning o'quv bazasi bilan tanishishdi. Shundan so'ng hurmatli mehmonlarning institut rektori O'. Umurzakov bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi va ular o'zaro hamkorlik qirralarini muhokama etishdi. Uchrashuv so'ngida "Rostselmash" kompaniyalar guruhi va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti o'rtasida o'zaro hamkorlik kelishuvi imzolandi. Kelishuv doirasida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti professor-o'qituvchilarining "Rostselmash" Akademiyasida stajirovka o'tashlari, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakultetida zamonaviy o'quv xonasi tashkil etish, "Qishloq xo'jaligi mashinalari" va "Traktorlar va avtomobillar" kafedralari o'quv bazasiga g'alla o'rish kombayni, traktor va boshqa yangi qishloq xo'jalik texnikalari va ularning maketlarini berishga kelishib olindi. Tadbir tashkilotchilari sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, "O'zagrotexsanoatxolding" AJ, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (O'zbekiston Respublikasi), "Rostselmash" kompaniyalar guruhi (Rossiya Federatsiyasi)ning maqsadlari mushtarak.



Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov